

YANGI O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMINI MODERNIZATSIYA QILISH JARAYONLARI

Nurxonov Muhammadi Nabi o‘g‘li

Termiz davlat universiteti akademik litseyi tarix fani bosh o‘qituvchisi

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti magistranti

Tel: +998915893225

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Yangi O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimini modernizatsiya qilish jarayonlarining asosiy yo‘nalishlari va ularning konseptual-huquqiy asoslari tahlil qilinadi. Oliy ta’lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ta’lim sifati, ilmiy-tadqiqot faoliyati hamda mehnat bozori talablariga mos raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdagi o‘rni ochib beriladi. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalariga akademik va moliyaviy mustaqillik berilishi, kredit-modul tizimining joriy etilishi, raqamli ta’lim texnologiyalarining keng qo‘llanilishi, xalqaro hamkorlik va akademik mobillikni rivojlantirish masalalariga alohida e’tibor qaratiladi. Maqolada mazkur islohotlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga ta’siri ham ilmiy jihatdan yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: *Yangi O‘zbekiston, oliy ta’lim tizimi, modernizatsiya, ta’lim islohotlari, kredit-modul tizimi, akademik mustaqillik, raqamli ta’lim, xalqaro integratsiya.*

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются основные направления и концептуально-правовые основы модернизации системы высшего образования в Новом Узбекистане. Раскрывается роль проводимых реформ в повышении качества образования, развитии научно-исследовательской деятельности и подготовке конкурентоспособных специалистов, отвечающих требованиям современного рынка труда. Особое внимание уделяется вопросам предоставления академической и финансовой автономии высшим учебным заведениям, внедрения кредитно-модульной системы, широкого применения цифровых образовательных технологий, а также развития международного сотрудничества и академической мобильности. Анализируется влияние данных процессов на социально-экономическое развитие страны.

Ключевые слова: *Новый Узбекистан, система высшего образования, модернизация, образовательные реформы, кредитно-модульная система, академическая автономия, цифровое образование, международная интеграция.*

ABSTRACT

This article explores the key directions and conceptual and legal foundations of the modernization of the higher education system in New Uzbekistan. It highlights the role of ongoing reforms in improving the quality of education, advancing research activities, and training competitive specialists who meet the demands of the modern labor market. Particular attention is given to granting academic and financial autonomy to higher education institutions, the implementation of the credit-modular system, the widespread use of digital educational technologies, and the development of international cooperation and academic mobility. The article also analyzes the impact of these reforms on the country's socio-economic development.

Keywords: *New Uzbekistan, higher education system, modernization, educational reforms, credit-modular system, academic autonomy, digital education, international integration.*

KIRISH

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston hayotining barcha sohalari chuqur va tizimli islohotlar maydoniga aylangan. Xususan, so'nggi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida qayta tashkil etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar hal qiluvchi bosqichga kirdi. Bu jarayonda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Prezidentimiz alohida ta'kidlaganidek: *"Farzandlarimiz maktabdan qanchalik bilimli bo'lib chiqsa, yuqori texnologiyalarga asoslangan iqtisodiyot tarmoqlari shuncha tez rivojlanadi va ko'plab ijtimoiy muammolarni hal etish imkoniyati yuzaga keladi. Shunday ekan, Yangi O'zbekiston ostonasi maktabdan boshlanadi, desam, butun xalqimiz bu fikrni qo'llab-quvvatlaydi"*. Ushbu fikrlar ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning strategik ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur konsepsiya doirasida oliy ta'lim muassasalarida qamrov ko'lamini kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va zamonaviy ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy-tadqiqot faoliyatiga faol jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish hamda xalqaro miqyosda e'tirof etilishga erishish kabi aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bu chora-tadbirlar ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarishga xizmat qilmoqda.

MATERIAL VA METODLAR.

Bugungi kunda jahondagi yetakchi oliy ta'lim muassasalari ilm-fan va innovatsiyaning yirik markazlari sifatida faoliyat yuritayotgani e'tirof etiladi. Shu bois, mamlakatimizda ham yangi oliy ta'lim muassasalari tashkil etish, shuningdek, dunyoning nufuzli universitetlari filiallarini ochish borasida izchil ishlar amalga

oshirilmoqda. Xususan, so‘nggi besh yil davomida 47 ta yangi oliy ta‘lim muassasasi, jumladan, xorijiy universitetlarning filiallari tashkil etilib, respublikadagi oliy o‘quv yurtlari soni 130 tadan oshdi.

Yurtimizda ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning salmoqli qismi, shubhasiz, oliy ta‘lim tizimiga to‘g‘ri keladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasida oliy ta‘limni tizimli ravishda isloh qilishning ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, mustaqil fikrlaydigan, yuqori malakali kadrlar tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish, oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish hamda ilg‘or ta‘lim texnologiyalari asosida ijtimoiy va iqtisodiy sohalarni rivojlantirish maqsadida 2019-yil 8-oktyabrda davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi sohadagi tub o‘zgarishlar uchun mustahkam poydevor vazifasini bajarmoqda [2].

Davlat–xususiy sheriklik mexanizmlari asosida nodavlat oliy ta‘lim muassasalari faoliyatini yo‘lga qo‘yish borasida izchil ishlar amalga oshirilmoqda. Aholining ehtiyoj va fikr-mulohazalarini inobatga olgan holda sirtqi hamda kechki ta‘lim shakllari qayta joriy etildi, oliy ta‘lim muassasalariga qabul kvotalari bosqichma-bosqich oshirildi. Natijada, maktab bitiruvchilarining oliy ta‘lim bilan qamrab olinishi 2016-yildagi 9 foizdan 2020-yilga kelib 25 foizga yetdi.

Professor-o‘qituvchilarning xorijiy oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlarida malaka oshirishi hamda stajirovka o‘tashini ta‘minlovchi samarali mexanizmlar yaratildi. Shuningdek, ularning oylik ish haqi 2018-yilga nisbatan o‘rtacha 2,5 barobarga oshirildi. Joriy yildan boshlab 10 ta oliy ta‘lim muassasasi o‘zini-o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tkazildi.

Oliy ta‘limga ajratiladigan davlat grantlari sonining kamida 25 foizga oshirilishi, oliy o‘quv yurtlariga qabul jarayonida ehtiyojmand oilalar qizlari uchun ajratiladigan grantlar miqdorining ikki barobarga ko‘paytirilib, 2 ming nafarga yetkazilishi oliy ta‘limga qamrab olish ko‘lamini yanada kengaytirishga xizmat qildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Ta‘lim tizimidagi muhim yangiliklardan biri oliy ta‘lim muassasalari va ta‘lim tizimining quyi bo‘g‘inlari o‘rtasidagi uzviylikni mustahkamlashga qaratilgan chora-tadbirlar bo‘ldi. Jumladan, 65 ta akademik litsey oliy o‘quv yurtlari tasarrufiga o‘tkazildi, shuningdek, 187 ta texnikum o‘z yo‘nalishlari bo‘yicha turdosh oliygohlar va tarmoq korxonalariga birlashtirildi.

Xulosa qilib aytganda, ta‘lim sohasida amalga oshirilayotgan istiqbolli vazifalar o‘zining dolzarbligi va amaliy ahamiyati bilan boshqa sohalardagi islohotlardan qolishmaydi. Mazkur yo‘nalishdagi islohotlarni yanada keng ko‘lamda va izchil davom ettirish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

Axborot texnologiyalari asrida yashayotgan hozirgi sharoitda innovatsiyalarni yaratish va joriy etish hayotiy zaruratga aylandi. Bu jarayon dunyo miqyosida taraqqiyot yo'lini tanlagan barcha mamlakatlarda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Respublikamizda ham ushbu jarayonga alohida e'tibor qaratilmoqda [3].

Mamlakatimiz Prezidenti faoliyatini yurtimiz akademiklari, yetakchi olimlari va ilm ahli bilan uchrashuvdan boshlagani davlat miqyosida ilm-fan rivojiga berilayotgan yuksak e'tiborni yaqqol namoyon etadi. Keyinchalik sog'liqni saqlash tizimini takomillashtirish, o'quv qo'llanmalarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish, respublikada erkin iqtisodiy zonalar tashkil etish, mamlakatni kompleks rivojlantirishga qaratilgan Harakatlar strategiyasini amalga oshirish, shuningdek, Ilm-fanni 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini [2] ishlab chiqish hamda Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish bo'yicha qabul qilingan qaror va farmonlarda ilm-fanni rivojlantirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi.

Ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirish, ularning natijalarini yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlarga aylantirish jarayonida intellektual mulk huquqlarini ishonchli himoya qilish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar Toshkent axborot texnologiyalari universiteti (TATU) qoshidagi Samarqand filialida ham izchil davom ettirilmoqda. Shu jarayonda fakultetlar soni 2 taga, mutaxassislik kafedralari 8 taga, ta'lim yo'nalishlari 7 taga va magistratura mutaxassisliklari 3 taga yetkazildi. Natijada ilmga qiziqqan talaba yoshlari soni 1 945 nafarga yetdi, professor-o'qituvchilar soni esa 114 kishini tashkil etdi.

Filialning moddiy-texnik bazasi ham yuqori darajada, kutubxonada esa qariyb 18 600 ta nashr jamlangan. 2020–2021 o'quv yilida filial bo'yicha bakalavriat yo'nalishlarida jami 404 nafar bitiruvchi mavjud bo'lib, shulardan 77 nafari davlat granti asosida, 327 nafari esa to'lov-kontrakt asosida ta'lim olgan. Magistratura yo'nalishlarida jami 11 nafar bitiruvchi bo'lib, 5 nafari davlat granti, 6 nafari to'lov-kontrakt asosida ta'limini yakunlagan [4].

Bitiruvchilarni ishga joylashtirish va mehnat faoliyatini monitoring qilish maqsadida 2021-yil 20-aprel kuni filial direktori tomonidan №10-sonli buyruq asosida taqsimot komissiyasi tashkil etildi. Bitiruvchilarni ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklar bo'yicha viloyatlar kesimida joylashtirish haqidagi e'lonlar "Zarafshon gazetasi" (27 fevral 2021) va "Xalq so'zi" (23 aprel 2021) gazetalarida e'lon qilindi.

Shuningdek, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021-yil 11-oktyabrdagi №428-sonli buyrug'iga muvofiq, filialda bitiruvchilarning bandlik holatini o'rganish

va mehnat faoliyatini monitoring qilish maqsadida ishchi guruh tashkil qilindi. Ushbu ishchi guruh faoliyatini nazorat qilish, muvofiqlashtirish va ma'lumotlarni umumlashtirish uchun filial direktori, o'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari hamda Marketing va talabalar amaliyoti bo'limi boshlig'idan iborat Shtab tashkil etilgan.

Filialning 2018–2030 yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlanish rejasi doirasida 2018–2025 yillarga mo'ljallangan ilmiy sohada amalga oshiriladigan ishlar dasturi ham belgilangan. Ushbu dasturga ko'ra, respublika va tarmoq xududiy ilmiy-texnik axborot resurslari, mahalliy va xorijiy ilmiy-texnik axborot manbalarini yig'ish, saqlash, qayta ishlash, fondni yuritish, ma'lumotlar bazasi va banklaridan foydalanishga ixtisoslashgan ilmiy-texnik axborot tizimi yaratish rejalashtirilgan. Shuningdek, filialda yangi ta'lim dasturlarini joriy etish va ularni zamonaviy talablar asosida rivojlantirish ishlari amalga oshiriladi [5].

XULOSA.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning barcha ta'lim bosqichlarida sezilarli o'zgarishlarni ta'minlamoqda. Toshkent axborot texnologiyalari universiteti qoshidagi Samarqand filialida olib borilayotgan chora-tadbirlar, xususan fakultetlar, kafedralar, ta'lim yo'nalishlari va magistratura mutaxassisliklari sonining kengaytirilishi, professor-o'qituvchilar tarkibining mustahkamlanishi, talaba yoshlarning qamrov ko'lamining oshirilishi filialning ilmiy va ta'limiy salohiyatini sezilarli darajada kuchaytirdi.

Shuningdek, bitiruvchilarni ishga joylashtirish va mehnat faoliyatini monitoring qilishga yo'naltirilgan tizimli chora-tadbirlar, ishchi guruh va shtablar faoliyati orqali oliy ta'lim muassasalarida tayyorlangan kadrlarning mehnat bozoriga integratsiyasi samarali tashkil etilmoqda. Filialning 2018–2030-yillarga mo'ljallangan istiqbolli rivojlanish rejasi doirasida ilmiy-texnik axborot resurslarini yaratish, saqlash va qayta ishlash, yangi ta'lim dasturlarini joriy etish, shuningdek, raqamli va innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasi, kutubxona fondi va xalqaro hamkorlik yo'nalishlari ta'lim sifatini oshirishga xizmat qilmoqda. Ushbu chora-tadbirlar nafaqat filial, balki butun respublika ta'lim tizimining zamonaviy talablar asosida rivojlanishiga asos bo'lmoqda. Natijada, mamlakatimizda oliy ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ilmiy salohiyatni oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va yosh avlodni zamonaviy bilim va texnologiyalar bilan ta'minlash imkonini yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimidagi bu izchil va strategik chora-tadbirlar mamlakatning intellektual salohiyatini rivojlantirish, ilm-fan va innovatsiyalarni mustahkamlash hamda ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotga sezilarli hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentyabrdagi «Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» gi PF-5538 sonli Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni. 2019-yil 8-oktabr, № PF-5847.
3. Abdukarimova G.B. Zamonaviy globallashuv bosqichining ilmiy-falsafiy tahlili. "Fan, ta'lim va madaniyat" jurnali, 2019-yil, № 4 (38), 36–37-betlar.
4. Abdurakhmonova, Z. Y. The role of modern pedagogical technologies in improving the quality of the educational process. Экономика, 12–16.
5. Muminov A.G. O'zbekistonda ta'lim sohasidagi islohotlar: holati va istiqbollari // "Fan va amaliyot axborotnomasi", 2019-yil, Jild 5, № 9, 478–483-betlar.